

O'zDSMIda fransuz rejissyorlari tomonidan mahorat darslari o'tkaziladi

Bugun Fransiya elchixonasi audiovizual hamkorlik bo'yicha attashesi Emanuel Fosiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov bilan uchrashuv o'tkazib, kino sohasida istiqbolli qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalarini muhokama qildi.

Muzokara davomida joriy yil so'ngida institut talabalari uchun fransuz rejissyorlari tomonidan mahorat darslari o'tkazish borasida kelishuvga erishildi.

Shu bilan birga, institutning fransuz oliygohlari bilan madaniyat va san'at sohasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish borasidagi taklifi ma'qullandi.





0‘zDSMI rahbariyati va talabalari Koreya madaniyati ko‘rgazmasida ishtirok etdi

Koreya Respublikasining Toshkent shahridagi ta‘lim markazida mamlakat tarixi, madaniyati, urf-odatlarini aks ettiruvchi ko‘rgazma tashkil etildi.

Unda Koreya Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kim Xi Sang, shuningdek, Koreya ta'lim markazi direktori hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov ishtirok etdi.

Ko'rgazma ishtirokchilari imperiya davridagi Koreya atmosferasini aks ettiruvchi milliy liboslar va taomlar, tarixiy fotosuratlariga guvoh bo'lishdi.

Tadbir davomida koreys urf-odat va an'analariga oid mahorat darslari, shuningdek, konsert namoyishi o'tkazildi. Jarayonda oliygohimizning iste'dodli talabalari ham o'z chiqishlari bilan qatnashdi.

Institutimiz rektori v.b. Eldor Shermanov va Kim Xi Sang o'rtasida ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda turli loyihalarni amalga oshirish borasida samimiy suhbat bo'lib o'tdi.

O'z navbatida, elchi janoblari oliygohimizda koreys madaniyat markazi tashkil etilganidan xursand bo'lganini hamda kelgusida ta'lim muassasamizga tashrif buyurishini ta'kidladi.







O'zbek tili – milliy madaniyatimiz timsoli

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbek tili bayrami munosabati bilan «O'zbek tili – milliy madaniyatimiz timsoli» nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbir avvalida oliygoh rektori v.b. Eldor Shermanov so'zga chiqib, barcha yurtdoshlarimizni til bayrami bilan tabrikлади.

«Barchangizga bugungi ulug' kun muborak bo'lsin! Har bir millatning boshqa ramzlari qatorida o'z tili bor va bu eng katta boyliklaridan biri hisoblanadi.

Har bir inson ona tilimiz rivoji yo'lida o'z hissasini qo'shmog'i darkor. O'zbek tili jozibadorligi, ma'nodorligi, lug'at boyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi.

San'at va madaniyat sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar tilimizning keng qamrovga ega bo'lishi hamda adabiy holda saqlanib qolishida juda katta vazifasini bajaradi.

O'zbek tili abadiy bo'lsin! Barchani ushbu shodiyona bilan yana bir bora muborakbod etaman!» – dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.



Shuningdek, davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi direktori Inomjon Azimov, Turkiya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi Madaniyat masalalari bo'yicha maslahatchisi Alparslan Akinji hamda Turkiya tijorat palatasii rahbari Serdar Keskin ham o'z tabriklarini yo'lladi.

«O'zbekiston – turk xalqlari madaniyatining beshigi. O'zbekiston va Turkiyaning tili, madaniyati, urf-odatlarida juda o'xshashdir. Turkiyada ham Toshkent tumani, Sayhun va Jayhun o'lkalari bor. Bugungi shodiyonaga do'stlarimiz bilan birga bo'lish maqsadida tashrif buyurdik. Barchaningizni til bayrami bilan tabriklayman», – dedi Alparslan Akinji.



Tadbir konsert dasturi bilan davom etib, bir-biridan diltortar taronalar bilan mehmonlarni xushnud etdi. Tadbirdan so'ng doshqozonda ehson oshi damlanib, institutning professor-o'qituvchilari hamda talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan yigit-qizlarga tarqatildi.











Madaniyat va san'at sohasi fidoyilari ilmiy unvonlar bilan taqdirlandi

Bugun O'zDSMIda madaniyat va san'at sohasi xodimlariga professor va dotsent ilmiy unvonlarini berish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Madaniyat vazirligi vakillari, xalq artistlari va hofizlari, olim va ziyolilar, el suygan san'atkorlar ishtirok etdi.

Taqdirlash marosimida Oliy Attestatsiya Komissiya raisi Ahmadbek Yusupov, Madaniyat vaziri o'rinbosari Bahodir Ahmedov hamda oliygoh rektori v.b. Eldor Shermanov ishtirok etdi.

Professor va dotsent ilmiy unvonlari bilan taqdirlanganlar ro'yxati bilan tanishishing:

Professor ilmiy unvoni bilan:

Karim Yo'ldoshev, Erkin Komilov, Muhammadali Abduqunduzov, Nasiba Abdullayeva, Shuhrat Rizayev, Murodjon Toshmatov, Abdulahad Abdurashidov, Aida Abdullayeva, Elmurod Ahmedov, Samandar Alimov.

Dotsent ilmiy unvoni bilan:

Bahodir Ahmedov, Boltaboy Shodiyev, Ayshaxon Jo'rayeva, Shomurod Yusupov, Aleksandr Bekchanov, Gulshan Azizova, Zamira

Rahmatullayeva, Karima Jabborova, Alisher Madrahimov, Nodira Mahmudova, Muhsinjon Mo'aminov, Jahongir Ahmedov, Muhabbat Gulyamova.

Tadbir davomida el suygan ustoz san'atkorlar bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, Prezident tomonidan madaniyat va san'at sohasiga alohida e'tibor qaratilayotgani e'tirof etilib, ilmiy unvonga munosib ko'rilgani uchun minnatdorchilik bildirdi.









Ziyolaring sarchashmasi so'nmasin, ustoz

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram konserti tashkil etildi.

Tadbirni Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sobir Jumayev ochib berib, ortda qolgan o'quv yilida qo'lga kiritilgan yutuqlar, soha bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida fikr yuritdi hamda barcha ustoz-murabbiylarga sihat-salomatlik, omad va muvaffaqiyat tiladi.


Shu bilan birga, ayni damda xizmat safari bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lib turgan institut rektori v.b. Eldor Shermanov tomonidan yo'llangan videomurojaati namoyish etildi.

Konsert dasturida xalq artistlari, xalq hofizlari bilan bir qatorda iste'dodli talabalarning chiqishlari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Qayd etish joiz, bayram arafasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan oliygohimizning ikki nafar professor-o'qituvchisi "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.









Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari kengaymoqda

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan shartnomaviy tashkilot sifatida tashkil etilgan Tinchlik universiteti rektori Fransisko Roxas Aravena, YUNESKO tashkilotining Osiyo mintaqasi bo'yicha Bosh kotibi Mun Heung Suk hamda Fransiya xalqaro musiqa akademiyasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv davomida oliygohimiz bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tinchlik instituti o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish masalasi muhokama qilindi.


Shuningdek, O'zbekistonda bo'lib o'tadigan xalqaro madaniyat festivallarida Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika vakillarining ishtirokini sezilarli ko'paytirish borasidagi takliflar ilgari surildi.

Qolaversa, hamkorlik doirasida investisiya dasturlarini amalga oshirish hamda kelgusida memorandum imzolashga kelishib olindi.

Shu bilan birga, mehmonlar oliygohimizning o'quv teatri

faoliyati bilan tanishdi.





O'zDSMIda ota-onalar kongressi o'tkazildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ota-onalar kongressi bo'lib o'tdi. Unda barcha fakultetda tahsil oluvchi birinchi bosqich talabalarining ota-onalari ishtirok etdi. Uchrashuvda institut rektori v.b. Eldor Shermanov boshchiligida prorektorlar, fakultet dekanlari va ularning o'rinbosarlari hamda tyutorlar qatnashdi.

Kongress doirasida o'quv jarayonining borishi, talabalarning darslarda ishtiroki, odob-axloq kodeksi va institut ichki tartib-intizomi, talaba-yoshlarning turli tanlov va festivallarda ishtirokini ta'minlash, talabalar turar joyi va ijara xonadonlarida yashash tartibi yuzasidan atroflicha ma'lumot berildi.

Bundan tashqari, yoshlarning qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularni rag'batlantirish hamda kitobga oshno bo'lishini ta'minlash, ularning xorijiy tillarni o'rganishi uchun munosib sharoit yaratishda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tildi. O'z navbatida, ota-onalar farzandlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, bundan mamnun bo'lganliklarini e'tirof etishdi.

Tadbir davomida ota-onalar uchun «Qora quyosh» spektakli namoyish etildi. Shundan so'ng mehmonlar uchun kofe-breyk tashkil etildi.

Shu bilan birga, ota-onalar o'quv xonalari va dars jarayonlari bilan yaqindan tanishib, professor-o'qituvchilar bilan muloqot qildi.







O'zDSMI Ilmiy kengashida Nodira Kasimova san'atshunoslik fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Nodira Kasimovaning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.

«O'zbekistonda qisqa metrajli badiiy kinoning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar» mavzusida yoqlangan himoya dissertatsiyasida sohadagi muammo va kamchiliklar atroflicha yoritib berildi.

Dissertatsiya himoyasi natijasiga ko'ra, kengash a'zolari tomonidan Nodira Kasimova san'atshunoslik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun loyiq deb topildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi Nodira Kasimovani dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilganligi bilan tabriklaydi va kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaydi.



